

"O'zkimyosanoat" Ajda sun'iy intellekt bo'yicha seminar-trening tashkil etildi

// 15.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-sun-iy-intellekt-bo-yicha-seminar-trening>



Davlatimiz rahbari raisligida 2025-yil 21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida "O'zkimyosanoat" Ajda bo'limlar rahbarlari va xodimlari uchun sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha 14-15-may kunlari seminar-trening o'tkazildi.



Seminar davomida ishtirokchilarga sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy va interaktiv taqdimotlar namoyish etildi.

Xususan:

- ish jarayonlarini avtomatlashtirish va shaxsiy samaradorlikni oshirish;
- hujjatlar aylanishini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- aniq statistika va ma'lumotlar bilan ishlash;
- vizualizatsiya va tahlil;
- prognozlash va tekshirish jarayonlarida AI yechimlarini qo'llash kabi yo'nalishlarda tushunchalar berildi.



Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad — xodimlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish, ish jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda korporativ samaradorlikni oshirishdan iborat.



"O'zkimyosanoat" Ajda sun'iy intellekt — kelajak texnologiyasi emas, balki bugungi samarali va innovatsion ish jarayonlarining muhim qismiga aylanmoqda.

